



Megaloblastik anemiyalarda etiologik omillarni aniqlash va lobarator diognostikaning samaradorligi.

**Sobirov Sardor
Foziljon o`g`li**

*Urganch davlat tibbiyot instituti Morfologiya ishi
yo`nalishi magistranti*

**Bekova Nodira
Bahodirovna**

*Urganch davlat tibbiyot instituti Fiziologiya va
potologik fiziologiya kafedrasida katta o`qituvchisi, PhD*

Annotatsiya

Ushbu maqolada megaloblastik anemiyalarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi asosiy etiologik omillar va ularni aniqlashda qo'llaniladigan laborator diagnostika usullari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida vitamin B₁₂ va folat yetishmovchiligi, ovqatlanish buzilishlari, oshqozon-ichak tizimi kasalliklari hamda boshqa omillarning ahamiyati o'rganildi. Shuningdek, qonning umumiy va biokimyoviy tahlillari, periferik qon surtmasi hamda suyak ko'migi tekshiruvlarining diagnostik ahamiyati baholandi. Olingan natijalar megaloblastik anemiyalarni erta aniqlash va differensial diagnostika qilishda laborator ko'rsatkichlarning muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari klinik amaliyotda to'g'ri tashxis qo'yish va samarali davolash choralari belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar:

Megaloblastik anemiya, vitamin B₁₂ yetishmovchiligi, etiologiya, lobarator diognostika, gemotologik ko'rsatkichlar.

Abstract. This article analyzes the main etiological factors contributing to the development of megaloblastic anemia and the laboratory diagnostic methods used for its detection. The study focuses on the role of vitamin B₁₂ and folate deficiency, nutritional disorders, gastrointestinal diseases, and other contributing factors. In addition, the diagnostic value of general and biochemical blood tests, peripheral blood smear, and bone marrow examination was evaluated. The results demonstrate that laboratory parameters play a crucial role in the early detection and differential diagnosis of megaloblastic anemia. The findings of this study are important for accurate diagnosis and the selection of effective treatment strategies in clinical practice.

Keywords: Megaloblastic anemia, vitamin B₁₂ deficiency, etiology, laboratory diagnostics, hematological parameters.

Muammoning dolzarbligi: Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, B₁₂ vitamini va folat yetishmasligi bilan bog'liq anemiya dunyo bo'ylab 10-15% populatsiyani tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich homilador ayollar va bolalar orasida yuqori bo'ladi. Homilador ayollar orasida megaloblastik anemiya ko'pincha folat etishmasligi tufayli rivojlanadi. Bunday ayollar orasida folat

yetishmasligi anemiya rivojlanishining asosiy omili bo'lib, bu yirik tug'ruq nuqsonlari va nerv yo'llarining defektlariga olib kelishi mumkin.

O'zbekistonda megaloblastik anemiya tarqalishining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. O'zbekiston hududida B12 vitamini va folat yetishmasligi bilan bog'liq anemiya ham ko'plab aholining sog'lig'iga ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, megaloblastik anemiyaning o'z vaqtida aniqlanishi va to'g'ri davolanishi to'liq tiklanish imkonini beradi. Aks holda, ayniqsa vitamin B12 yetishmovchiligida qaytmas nevrologik o'zgarishlar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, ushbu muammo klinik amaliyotda, ayniqsa birlamchi tibbiy yordam bosqichida alohida e'tibor talab qiladi.

Tadqiqot maqsadi: Xorazm viloyatida aholi o'rtasida qon tizimi kasalliklari, megaloblastik anemiyalar bilan kasallanishlarda kasalliklarining morfo-funksional xarakteristikalarini chuqur o'rganishdir.

Material va metodlar: Tadqiqot tasodifiy tanlab olingan Xorazm viloyati materiallari asosida o'rganiladi. Qon tizimi kasalliklari morfo-funksional xarakteristikasi statistik hisobotlar asosida va kasallik sabablari anketa-so'rov usullarida amalga oshiriladi. Ma'lumotlarni statistik tahlil qilishda ijtimoiy-gigiyenik va sanitariya-statistik usullardan keng foydalaniladi.

Natijalar: Shaxsiy kuzatuvlar 2024-2026 yillarni qamrab olgan. Bu davr mobaynida statsionar davolanishda bo'lgan 80 nafar bemor tekshiruvdan o'tkazildi. Barcha tekshirilgan shaxslar ikki guruhga ajratildi. Asosiy guruh — megaloblastik anemiya bilan kasallangan 60 nafar bemor bo'lib, ular tekshirilganlarning umumiy sonining 75,0 % tashkil etdi. Nazorat guruhi — 20 nafar amalda sog'lom shaxslar bo'lib, ular 25,0 % tashkil etdi.

Kasallikning davomiyligi va kechish xususiyati. Anamnestik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, tadqiqotga kiritilgunga qadar kasallikning davomiyligi quyidagicha bo'lgan: 6 oygacha — 21 bemor (35,0%); 6 oydan 1 yilgacha — 24 nafar bemor (40,0%); 1 yildan ortiq — 15 nafar bemor (25,0%). Megaloblastik anemiyaning surunkali kechishi 39 nafar bemorda (65,0%), o'tkir osti kechishi esa 21 nafar bemorda (35,0%) kuzatilgan.

Asosiy guruhdagi bemorlarning aksariyatida yondosh kasalliklar aniqlangan. Eng ko'p uchraganlari: oshqozon-ichak yo'li kasalliklari — 37 bemor (61,7%), shu jumladan surunkali va atrofik gastrit, malabsorbsiya sindromi; autoimmun kasalliklar (shu jumladan autoimmun tireoidit) — 14 nafar bemor (23,3%); yurak-qon tomir tizimi kasalliklari — 12 nafar bemor (20,0%); surunkali yallig'lanish kasalliklari — 9 nafar bemor (15,0%).

Davolanishdan oldin megaloblastik anemiyaga chalingan bemorlarda o'tkazilgan qon biokimyoviy tahlili shuni ko'rsatdiki, 63,3% holatlarda vitamin B₁₂ miqdori me'yordan past (<200 pg/ml), 36,7% holatlarda folat kislotasi miqdori kam (<4 ng/ml), 71,7% holatlarda laktatdehidrogenaza (LDG) faolligi yuqori (>250 B/l) va 48,3% holatlarda bilvosita bilirubin miqdori oshgan (>17 mkmol/l) edi. Patogenetik davodan so'ng esa tekshirilgan bemorlarning 92,1% vitamin B₁₂ miqdori, 90,9 % folat kislotasi miqdori me'yorlashdi, 85,0% LDG faolligi me'yoriy ko'rsatkichlarga qadar pasaydi va 88,3% bilirubin ko'rsatkichlari me'yorga keldi (p < 0,001)

Shunday qilib, miqdoriy va foizli tahlil usullari yordamida o'tkazilgan statistik ma'lumotlar tahlili natijasida quyidagi xulosaga kelindi: megaloblastik anemiya bilan kasallangan bemorlarning 70-90 % dan ortig'ida nazorat guruhidan sezilarli darajada farq qiladigan o'ziga xos gematologik va morfologik o'zgarishlar aniqlandi. Bu esa o'tkazilgan tadqiqotning ilmiy asoslanganligi va statistik ishonchliligini tasdiqlaydi.

Xulosa: Megaloblastik anemiyada B₁₂ vitamini va folat kislotasi tanqisligining rivojlanishidagi asosiy sabablar ovqatlanishning buzilishi va so'rilishning izdan chiqishi ekanligi aniqlandi. Asosiy guruhda 41,7% bemorlarda alimentar tanqislik, 58,3% bemorlarda oshqozon-ichak trakti kasalliklari aniqlangan bo'lib, ushbu omillarning birgalikda kuzatilishi 29,2% tekshirilganlarda qayd etildi. B₁₂ vitamini tanqisligi ko'proq oshqozon va ichak kasalliklari bilan bog'liq bo'lgan ($p < 0,01$), folat kislotasi tanqisligi esa asosan alimentar xususiyatga ega bo'lgan ($p < 0,05$).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Воробьев П.А. Анемический синдром в клинической практике. — М.: Нью-диамед, 2001. — 168 с.
2. Гематология детского возраста. Руководство для врачей/Под ред. проф. Н. А. Алексеева. — СПб.: Гиппократ, 1998. — 544 с.
3. Исследование системы крови в клинической практике/Под ред. Г. И. Кози-нец и В. А. Макарова. — М.: Триада-Х, 1997. — 480 с.
4. "Modulation of hyperthermic effect of pyrogens by calcium channel blockaromes" (2025). Z.Z.Hakimov, A.Kh.Raxmonov, N.B.Bekova./ Journal of medicine and pharmacy.
5. "The effect of calcium channel blockade on pain sensivity in experimental animals" (2025). Z.Z.Hakimov, A.Kh.Raxmonov, N.B.Bekova./ American journal of applied medical science.
6. Qalandarova Umida Arslonovna, P., & RAXIMBERGANOV Sanjarbek Rustam o'g'li. (2023). KORONAVIRUSGA QARSHI VAKSINATSIYADAN KEYINGI NOJO'YA TA'SIRLARNING PATOFIZIOLOGIK ASOSLARI, ULARNING OLDINI OLISH BO'YICHA KOMPLEKS CHORA-TADBIRLAR. Экспериментал тадқиқотлар, 1(1), 7–13.
7. Ziyaviddin Z. Khakimov, Alisher K. Rakhmanov, Nodira B. Bekova INFLUENCE OF CALCIUM CHANNEL ANTAGONISTS ON THE DEVELOPMENT OF ADJUVANT ARTHRITIS IN RATS./ Biomeditsina va amaliyot jurnali. 7-4. 2022.
9. Каландарова У. А., Ибадова М. У., Каюмов У. К. Метаболический синдром: основные вопросы диагностики, профилактики и лечения //Евразийский научный журнал. – 2015. – №. 11. – С. 162-165.
10. Kalandarova U. A., LEYOMIOSARKOMALARINING Yuldashev B. S. BACHADON IMMUNOGISTOKIMYOVIY XUSUSIYATLARI //Журнал гуманитарных и естественных наук. – 2025. – №. 18. – С. 97-101.